

TASAVVUF FALSAFASIDA INSON MA'NAVIY KAMOLOTI MASALASI VA UNING "MASNAVIY- MA'NAVIY" ASARIDA NAMOYON BO'LISHI

Mardonova Madina Asqar qizi

Toshent davlat Sharqshunoslik universiteti

mmardonova774.@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Masnaviy –ma'naviy asari asosida Rumiyning tasavvuf falsafasi va inson ma'naviy kamoloti masalalari qisqacha tarzda ochib berilishiga harakat qilingan. Maqolada Rumiyning asarlaridan va izlanmalaridan foydalanilgan. Maqolada foydalanilgan manbaalar foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Tasavvuf, Alloh, tasavvuf falsafasi, Islom, Qur'oni Karim, hadis, inson mohiyati, botiniy va zohiriy anglash, mazhab, firqa, ruh, jism, iymon, sunnat, kalom, komil inson g'oyasi, mazhablar, musulmon, Me'roj, Xudo.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе его Маснави-духовного труда кратко раскрыта мистическая философия Руми и вопросы духовного совершенствования человека. В статье использованы труды и исследования Руми. Исползованные в статье источники приведены в Список ссылок.

Ключевое слово: *суфизм, Аллах, философия суфизма, ислам, Священный Коран, хадис, сущность человека, внутреннее и внешнее сознание, секта, секта, дух, тело, вера, сунна, слово, представление о совершенном человеке, секты, мусульманин, мирадж, Бог.*

ABSTRACT

In this article, on the basis of his Masnavi-spiritual work, the mystical philosophy of Rumi and the issues of spiritual perfection of a person are briefly disclosed. The article uses the works and research of Rumi. The sources used in the article are given in the List of References.

Keywords: *Sufism, Allah, Sufism philosophy, Islam, Holy Quran, hadith, human essence, inner and outer consciousness, sect, sect, spirit, body, faith, sunnah, word, idea of perfect man, sects, Muslim, Miraj, God.*

KIRISH

Jaloliddin Rumi merosining islom madaniyatidagi o'rnini tadqiq qilishda avvalo, o'rta asrlar musulmon Sharqining muazzam ta'limotlaridan bo'lmish tasavvufga e'tiborimizni qaratishga to'g'ri keladi. Tasavvuf islomning botiniy

jihatlarni qamrab olib, uning bosh g'oyasi Alloh taoloning rizoligiga erishish uchun nafsni poklab go'zal axloq sohibi bo'lishga intilmoq, ya'ni Muhammad payg'ambar (s.a.v.) xulqi bilan axloqlanishdir. Qur'oni karim va hadisi sharifga tayangan tasavvuf islom ilm-fani va madaniyatidan munosib o'rin olgan Jaloliddin Rumi uchun ham ma'naviy yuytuklik pillapoyasi bo'lib xizmat qilgan. Mavlono Rumi shaxsiyati va ijodi borasidagi tadqiqotlarda Mavlono fikr va aqida jihatdan Qur'onga tayanganligi uqtiriladi. Xususan, Mavlono Rumiyning «Masnaviy» asari haqida N. Komilov quyidagi fikrlarni bildiradi:

“Masnaviy»da bir necha yuz hikoyat va rivoyatlar keltirilgan. Qur'oni karimning yuzlab oyati tilga olinib, tafsir etilgan, 690 hadisga rumiyona sharh berilgan. Ko'z oldimizda ham Kalom ilmining ulug' bilimdoni, ham tasavvuf ta'limotini sarbaland cho'qqiga olib chiqqan orif inson, ham muqtadir daho shoir gavdalanadi. Oddiy latifalar, hikoyatlardan Rumi favqulodda falsafiy so'fiyona ma'nolar chiqaradi, teran doiradan doiraga, darajadan darajaga ko'tarilib boradi. “Qur'onning uch qabat botiniy ma'nosi bor”, deb qayd etadi u va ana shu ma'nolarni izchil bizga tushuntiradi” [1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Haqiqatan ham Mavlono Rumiyning barcha asarlari islom dinining mohiyati asosida yozilgan bo'lib, olam va odam mohiyatining ma'naviy sir-asrorlaridan voqif qiladi.” [2]Mutafakkir insonning bu dunyodagi ahvoli, ruhiyati xususida ta'kidlab shunday fikrlarni bildiradi: «Insonda shu qadar ulkan ishq, hirs, orzu va dard bordirki, yuz minglarcha olam o'ziniki bo'lsa ham, ko'ngli tinchimaydi. U ishda, san'atda, ilmu nujumda, hakimlikda mashg'ul. Biroq bularning hech biridan huzur topolmaydi. Chunki istagan narsasini qo'lga kiritolmagan. Yor dilorom, ya'ni ko'ngilni tinchlantiruvchi demakdir. Shunday ekan, ko'ngil boshqa nima bilan qanday xotirjam bo'lsin? Zavq va orzular zinapoyaga o'xshaydi. Zinapoyalar o'tirib dam olishga moslashmagan, aksincha usti bosib o'tiladi, xolos. Umrni shu zinalarda behuda o'tkazmaslik uchun g'ofillikdan tez uyg'ongan va ahvolining mohiyatini anglab yetgan zot qanday baxtli» [3]

Mavlononing “Fihi mo fihi” (“Ichindagi ichindadir”) asaridagi bu fikrlardan ko'rinadiki, bu dunyoda insonni chalg'itadigan va uning o'zligini anglashga to'sqinlik qiladigan o'tkinchi vositalar bisyor. Inson o'z mohiyatini anglamog'i uchun va haqiqiy hotirjamlikka erishish uchun hayotidagi o'tkinchi vositalarga aldanib qolmasligi kerak bo'ladi. Insonning mohiyatini Mavlono ikki asosda – moddiy va ma'naviy jihatlarning uyg'unligida deb biladi: “Agar danakni chaqib,

magʻzini eksang unmaydi. Agar qobigʻi bilan birga tuproqqa qadasang-chi, unish hodisasi roʻy beradi”[4] Bunda mutafakkir bioruhiy mavjudot boʻlgan insonga ishora qilib, danakning magʻzi ruh, qobigʻi esa insonning vujudi ekanligini, bu foniy dunyoda insonning ikki dunyo saodatiga noil boʻlishi uchun esa mana shu moddiy va maʼnaviy asosning uygʻunligi muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutadi.[5]

Bundan koʻrinadiki, Mavlononing maqsadi insonni gʻofillikdan uygʻotib, oʻz mohiyatini teran anglashga undash, uning faqat moddiyat asiri boʻlib qolmasligi va haqiqiy ilm va hikmatning boshi boʻlgan Allohni tanishga, Uning jamoliga musharraf boʻlishga chaqirishdir. Buning uchun inson vujudidagi hayvoniylik sifati magʻlub boʻlib, insoniylik sifati zuhur etilishi kerak boʻladi. An shunda Mavlono aytganlaridek, «Insonning ichi hurriyat olami»ga[6]aylanadi.

Mavlono Rumiylaridagi diniy-irfoniy gʻoyalar islom tasavvufining asosida shakllangan boʻlsa-da, Mavlono oʻz davrida mustaqil oʻziga xos pozitsiyasiga ega edi. Bu uning islom va tasavvuf maʼnaviyati xalqchil ruhda falsafiy mushohadalarga boy hikoyatlar va masnaviy janrida bitilgan sheʼriyatida namoyon boʻladi. Jaloliddin Rumiylaridagi yuksak estetik mazmunga ega boʻlib, undagi maʼnaviy gʻoyalar irqi, millati va dinidan qatʼi nazar, insonning oʻzini anglashga xizmat qiladi, inson qalbiga boruvchi barcha yoʻllarni birlashtiradi va azaliy mohiyatlarni kashf qilib, insoniyatni bagʻrikenglik va maʼnaviy komillik sari yetaklaydi.

“Alisher Navoiyning “Nasoyim - ul muhabbat” asarida keltiriladikim, Jaloliddin Rumiylaridagi oʻz zamondoshi Mavlono Sadridin Qazviniyni xushlamas edi. Bir kuni suhbat asnosida gap islomdagi mazhablar haqida borganda, Rumiylaridagi Qazviniyga qarab: “Men yetmish uch mazhab bilan birdirman” deydi.

Mavlono Sadridin shogirdlaridan biriga “Sen katta bir izdihom ichida Rumiylaridagi mazkur gapni aytganmidigiz, deb soʻra. Agar iqror boʻlsa, ogʻzingdan kelgancha soʻk va ranjida qil”, deb buyurdi. Shogird paytini topib, haligi savolni berganda, Rumiylaridagi: “Ha, aytganman”, deya tan oladi. Shunda u qabih soʻzlar aytib, Rumiylaridagi haqorat qila boshlaydi. Ammo Jaloliddin Rumiylaridagi hech bir jahli chiqmay, tabassum qilib: “Men sening aytganlaring bilan ham birdirman”, deydi. Mavlono Sadridinning shogirdi oʻzi uyalib majlisni tark etadi.[7] Ushbu hikoya nimaga ishora etadi? Nega Jaloliddin Rumiylaridagi oʻzini yetmish uch mazhab bilan birgaman deb eʼlon qilgan va nima sababdan bu Mavlono Sadridin Qazviniyga yoqmagan? Bu savollarga javob berishdan oldin, qisqacha boʻlsa-da, oʻquvchilarga yetmish uch mazhab nimaligi haqida maʼlumot berishimiz lozim. Yetmish uch mazhab—bu islomdagi siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy kurashlarni ifodolab kelgan har xil oqimlar, guruh va firqalardir. Avvalo, shuni ham qayd etmoq joizki, bu ibora baʼzi

manbalarda “yetmish ikki mazhab” shaklida ham uchraydi. Sababi yetmish uchinchi mazhab islomning asosiy an’anaviy yo’li hisoblangan sunna va jamoa mazhabidir, qolgan yetmish ikki mazhab ana shu sunna va jamoadan ajralib chiqqan, deb qaraladi.

Endi yetmish ikki mazhabning o’ziga kelsak, ularni dastlab olti guruhga ajratadilar. Chunonchi: rofiziya (o’z qavmini, safini tark etganlar), xorijiya (ajralib chiqqanlar), jabariya (taqdiri azal hukmini qat’iy deb biluvchilar), qadariya (insonning erki o’zida deb biluvchilar), jahimiya (Jahm bin Saffon tarafdorlari— barcha masalalarni do’zax va jannatga bog’lab tushuntiruvchilar), murjiya (Xudo bandasini noumid qilmaydi deguvchilar).[8]

Mazkur olti guruhning har biri yana o’n ikki firqaga ajraladi. Masalan, rofiziya oqimi firqalari: alaviya (hazrati Ali ham payg’ambar edi deguvchilar), abadiya (Ali payg’ambarlikka sherik deguvchilar), shia (kimki Alini barcha sahobalardan afzal deb bilmasa, kofirdir deguvchilar) is’hoqiya (payg’ambarlik tamom bo’lgan emas deguvchilar), zaydiya (imomlikka faqat Ali avlodi munosib deydiganlar), abbosiya (Abbos ibn Abumutallibdan boshqa imomni tan olmaydiganlar), imomiya (g’oyibdan keluvchi imom yer yuzida doim bor deguvchilar), norisiya (kimki o’zini boshqalardan afzal deb hisoblasa, kofirdir deydiganlar), mutanosixiya (jon chiqqandan keyin yana boshqa vujudga kirishi mumkin deb ishonuvchilar), lo’iniya (Sahobalardan Talxa, Zubayr va bibi Oishani la’natlovchilar), roji’iya (Ali yana dunyoga keladi deguvchilar), murtaziya (musulmon podshosi bilan jang qilish ravo deydiganlar).[9]

XULOSA

Albatta, barcha mazhablar haqida bu maqolada batafsil to’xtashning iloji yo’q. Faqat shuni aytmoqchimizki, rofiziya va xorijiya firqalari shiachilik aqidalariga asoslansa, ya’ni hazrati Ali va uning avlodini ulug’lashni maqsad qilib olsa, qadariya va jabariya firqalari sunna oqimiga mansub bo’lib, ilmi kalomning nazariy sxolostik aqidalari atrofida bahs qilganlar. Murjiya, jahimiya firqalari ham shia ham sunna mazhabiga tortadigan maslaklardan iborat. Bularning ba’zilari fiqh masalalarida, ba’zilari namoz, ibodat tartiblari, ba’zilari iymon mazmuni ustida tortishadilar. Ammo ular orasida islom dini ahkom va aqidalarini inkor etadiganlari ham bor. Chunonchi, “mo’tazila mazhabiga ko’ra, yomonlik ilohiy taqdiridan emas, balki insonlarning o’zidandir; fosiq kishining imomligi harom; iymon esa bandasining tajribasi(o’zlashtirganidan) hosil bo’ladi, oldindan belgilanmaydi;

Qur’on yaratilgandir, vahiy emas, Me’roj Quddus shahrigachadir va bu faqat ruhga tegishli, jismga emas; qiyomatda gunoh- savobning hisob kitobi, tarozi yo’q,

avliyolarning karomati yolgʻon, qiyomatda Haq taoloni koʻrish mumkin emas, jannat ahli ham uxlaydilar, ovqatlanadilar va vafot etadilar... Sirojiya ahli fikricha, oʻlib ketgan odamlarning soʻzi hujjat boʻlolmaydi, ularni inkor etish mumkin (demak, payambar hadislarini ham).”

Muhkomiya oqimi boʻyicha esa, Xudoyi taoloning bandalariga hech bir hukmi yoʻq. Xudo olamni va odamni yaratgan, ammo odam barcha faoliyatda ixtiyor oʻzida. Lafziya ahli deydilarki, Qurʻon ish Kalomidir, ilohiy soʻz emas, biroq Qurʻonning maʼnosi ilohiydir. Riyoziya boʻyicha iymon sunnat, xolos, yaʼni ezgu soʻz, ezgu amal, ezgu niyatdir.

REFERENCES

1. Jaloliddin Rumi. Maʼnaviy masnaviy. T.: Sharq, 1999. B. 12.
2. Quronbekov A. Mavlono Jaloliddin Rumiyning avlodlarga mangu maʼnaviy merosi.: Mavlono Jaloliddin Rumiyning 800 yilligiga bagʻishlangan ilmiy anjuman materiallari. – T., 2007. – B.9-12.
3. Rumi, Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. T., 2001. B. 65.
4. Oʻsha asar. B. 4.
5. Jaloliddin Rumi “Ichindagi Ichindadir”-Ulugʻbek Hamdam tarjimasini. Toshkent-2016.-B.3.
6. Ulugʻbek Hamdam. Jaloliddin Rumi “Ichindagi Ichindadir” Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent,-2016.-B.12.
7. Ulugʻbek Hamdam. Jaloliddin Rumi “Ichindagi Ichindadir” Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi .Toshkent, 2017.-B.18.